



## NAMANGAN VILOYATI SANOATI

**Muhammedova Nazokat Jurayevna**

*Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti*


**Talabboyeva Mohinabonu**

*Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yish va qanday mahsulotlar ishlab chiqarish va uning zaxiralari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Mashinasozlik, elektr energiyasi, gaz, tog'-kon sanoati

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi tarkibi



Namangan viloyati respublika ishlab chiqarish va madaniy taraqqiyotida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Viloyat sanoatining asosiy tarmoqlari: mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo, paxta tozalash va oziq-ovqat sanoatlari hisoblanadi. Viloyatda 170 dan ziyod sanoat korxonalari mavjud bo'lib, eng yirik sanoat korxonalari: mashinasozlik, avtomabillarni tuzatish, g'isht, yog'-ekstraksiya, paxta tozalash va oziq-ovqat hamda 3402 ta kichik, 249 shirkat va 76 ta qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Dastlabki, ma'lumotlar bo'yicha 2023-yil holatiga ko'ra, viloyat korxonalari tomonidan 14848,6 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning 307,7% ga oshganini ko'rishimiz mumkin. Viloyat sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulushi ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning hajmi 12227,9 mlrd so'mni yoki sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 82,4%ni tashkil etadi.

Sanoat-milliy iqtisodiyotning moddiy ne'mat ishlab chiqaradigan muhim tarmog'i.



Shuningdek, tog'-kon sanoati -59,4%mlrd so'm yoki 0,4%,elektr ta'minoti,gaz,bug' yetkazib berish va sun'iy iqlim hosil qilish -2412,5 mlrd so'm yoki 16,2%,suv ta'minoti ,oqava suv ,chiqindilarni yig'ish utilizatsiya qilish 148,8 mlrd so'mni ya'ni 1%ni tashkil etgan, bu esa 2021-yilga nisbatan tog'-kon sanoati 388,2%,elektr ta'minoti,gaz,bug' yetkazib va sun'iy iqlim qilish 348,3%,suv ta'minoti,oqava,chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 292,9% ga oshgan.Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarishning viloyatda jami hajmdagi eng yuqori ulushi Namanagan shahriga (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 38,9%ni),shuningdek,To'raqo'rg'on(19,4%),Chust(10,1%),Uychi(5,3%),Kosonsoy (5,3%),Uchqo'rg'on(4,5%) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.Eng past ko'rsatkich esa,Norin(0,9%),va Yangiqo'rg'on (1,9%)tumanlarida qayd etilgan.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi viloyat bo'yicha o'rtacha 1473,9 ming so'mni tashkil etib,yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga,

To'raqo'rg'on(3728-ming so'm)

Namanagan shahri (2406 ming so'm)

Mingbuloq (1862,4 ming so'm)

Namangan tumanida (1530,4 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligi kuzatiladi. 2023-yil hisobot davrida viloyatda 246 dona yangi sanoat korxonalari tashkil etilib,jami faol sanoat korxonalar soni 5739 ta bo'lib ,ular hozir ham faoliyat ko'rsatmoqda. Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6 388,1 mlrd. so'mni yoki 2022 yilning mos davriga nisbatan 106,7% ga ko'paygan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 43,0% ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 46,3%ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumanida 11,1%, Kosonsoy tumanida 9,8%, Chust tumanida 7,5%, Chortoq tumanida 4,9% va Uychi tumanida 4,8%ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining hududlar kesimida yuqori darajada o'sish ko'rsatkichlari Uychi (164,1%), Chortoq (116,8%) tumanlari, Namangan shahri (116,6%), Chust (114,2%) va Kosonsoy (113,4%) tumanlarida, pasayish ko'rsatkichlari Yangiqo'rg'on (69,4%), Uchqo'rg'on (64,8%) va Pop (81,1%) tumanlarida qayd etilgani kuzatildi.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi o'rtacha ko'rsatkichi 2 113,0 ming so'm bo'lgani holda, Namangan shahrida (4 318,0 ming so'm), To'raqo'rg'on (2 942,9 ming so'm) va Kosonsoy (2 788,7 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat ko'rsatkichidan yuqoriligi qayd etildi.

#### FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Nam.stat.uz
2. Hududlar Sanoat mahsuloti Namangan viloyati Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi